

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNI KITOBXONLIK
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Rafikova Dilafruz Kaxxaraliyevna

Farg‘ona davlat universiteti

pedagogika kafedrası katta o‘qituvchisi p,f,b,f,d (PhD)

E-mail: dilafruzrafikova.1983@ [mail.ru](mailto:dilafruzrafikova.1983@mail.ru)

Tel: +902770435

Rasulova Mohichexraxon Umidjon qizi

Pedagogika va psixologiya yo‘nalish

4 – kurs talabasi

E-mail: muhammadalievamohichehra@gmail.com

Tel: +99899 692 44 37

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarni kitobxonlik madaniyatiga jalb qilish, ularda kitobga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish uchun samara beruvchi usullarni joriy etish orqali ularni kitob orqali yangi olamlarni kashf etishga, bilim olishga va hayot davomida o‘qishga rag‘batlantirish, ijodkorligini, fikrlash madaniyatini va axloqlarini shakllantirish bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *kreativ yondashuv, jamiyat, ijtimoiy hayot, kreativ fikrlash, o‘zbek oilalari, kitobxonlik madaniyati, farzand tarbiyasi. oila tarbiyasi, tarbiya, ahloq, hamkorlik, ijobiy munosabat, interaktiv o‘yinlar, qadriyatlar.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 70 – maqsadi “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlanib, unda “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash”[1], ta’kidlanadi. Bu esa demokratik jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib yashashni zarurligini anglatadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga esa kitob mutoaala qilmasdan, kreativ yondashmasdan erishish qiyindir.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san‘at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarida insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba‘zan murakkab

sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir.

Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Kitobxonlik madaniyati, kitobni sevadigan, uning mazmunidan bahramand bo'ladigan va u orqali bilim oladigan insonlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun kreativ yondashuvni qo'llash nafaqat ular bilimni oshirish, balki ularning iste'dod va qiziqishlarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ yondashuv nima?. Kreativ yondashuv – yangi g'oyalar, usullar va fikrlash shakllarini ishlab chiqish jarayonidir. Bu yondashuv ta'limda o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni yaratishga undash va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar kitoblarni o'qishdan nafaqat bilim olish, balki o'z hissiyotlarini, tasavvurlarini va g'oyalarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Bugungi kunda o'quvchilarni kitobxonlikka jalb qilish masalasi dolzarb masala sifatida e'tibor qaratilmoqda. Kreativ yondashuv orqali o'quvchilarni kitobxonlikka jalb qilishning bir necha usullari mavjud:

- interaktiv o'yinlar- o'quvchilar uchun kitoblardan olingan asarlarni asos qilib olgan interaktiv o'yinlar tashkil etish. Bu ularning kutubxona bilan bog'lanishini kuchaytiradi va kitoblarni o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi;
- litreativ yozuv- o'quvchilarga o'z hikoyalarini yoki she'rlarini yozish topshirig'ini berish. Bu jarayonda ular o'qigan kitoblari asosida yangi asarlar yaratishlari mumkin;
- drama va teatr- kitoblarning mazmunini sahnalashtirish o'quvchilarni qiziqtiradi va ularga qahramonlar hissiyotini chuqur tushunish imkonini beradi. Dastlabki matnlarni dramalashtirish ham o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi.

Kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish, o'quvchilarni kitobxonlikka jalb qilishdan tashqari, ularning kitobni yaxshi tushunishga, tahlil qilishga va muhokama qilishga o'rgatish ham juda muhim:

- kitob muhokamalari o'qilgan kitoblar haqida o'zaro muhokama tashkil qilish. Bu o'quvchilarning fikr almashish, tajribalarni baham ko'rish va turli xil fikrlarga ochiq bo'lishlariga yordam beradi;

- yozma ishlar va qiziqarli mavzular o‘quvchilarni yoqtirgan mavzular yoki kitoblar haqida yozma ishlar tayyorlashga undash. Bu jarayonda ular o‘z fikrlarini ifodalashga, izlanishga va ijodiy yondashishga o‘rganadilar;

- o‘qish festivalari maktabda yoki hududiy miqyosda kitob o‘qish festivallarini o‘tkazish. Bu tadbirlarda o‘quvchilar o‘z sevimli kitoblarini taqdim etishi, o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashishi va yangi kitoblarni kashf etishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarni kitobxonlik madaniyatiga jalb qilish, ularda kitobga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish uchun samara beruvchi usuldir. Bu jarayon davomida o‘quvchilar o‘z ijodkorligini, fikrlash madaniyatini va axloqiy qimmatlarini rivojlantiradi. Yuqoridagi usullarni joriy etish orqali o‘quvchilarni kitob orqali yangi olamlarni kashf etishga, bilim olishga va hayot davomida o‘qishga rag‘batlantiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон www.lex.uz.

2. Rafiqova.D.K. Amaliy ta’limning nazariy asoslarini shakllantirish// Jamiyat va innovatsiyalar-Society and innovations Special Issue -8 (2021) / ISSN 2181 – 1415